

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SIROJIDDINOVA SHAHRIBONU SIROJIDDINOVNA**

**HUQUQSHUNOSLIK YO'NALISHI TALABALARINING NUTQIY VA  
LEKSIK KOMPETENTSIYALARINI CONTENT-BASED YONDASHUVI  
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Content Of The Dissertation Abstract Of The Doctor Of Philosophy (PhD) On  
Pedagogical Sciences**

**Sirojiddinova Shahribonu Sirojiddinova**

Huquqshunoslik yo'nalishi talabalarining nutqiy va leksik kompetentsiyalarini  
content-based yondashuvi asosida takomillashtirish ..... 3

**Sirojiddinova Shahribonu Sirojiddinova**

Improving speaking and vocabulary competence by implementing content-based  
approach for law field students ..... 27

**Сирожиддинова Шахрибону Сирожиддиновна**

Совершенствование разговорной и словарной компетенции студентов  
юридического направления на основе content-based подхода ..... 53

**E'lon qilingan nashrlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SIROJIDDINOVA SHAHRIBONU SIROJIDDINOVNA**

**HUQUQSHUNOSLIK YO‘NALISH TALABALARINING NUTQIY VA  
LEKSIK KOMPETENTSIYALARINI CONTENT-BASED YONDASHUVI  
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Ped3890 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchi.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Raximov G'anisher Xudoyqulovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentalar:**

**Rashidova Feruza Musayevna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rahmonov Azizxon Bositxonovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil « 6 » may soat 10:00 dagi majlisida bo'ladi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks (998966) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (6144 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93. Tel.: (99866) 233-78-43, faks: (99866) 210-00-18.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 25 » april kuni tarqatildi.  
(2023-yil « 25 » april dagi № 10 raqamli reyestr bayonnomasi)



**I.M. Tuxtasinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc),  
professor

**G'.Q. Mirsanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori  
(DSc), dotsent

**Sh.S. Safarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqyosida ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talabning ortib borishi ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jahon hamjamiyatining tezkor integratsiyalashuvi jarayonida ingliz tili BMT tomonidan e'tirof etilgan xalqaro tillardan biri sifatida o'zining mustahkam o'rnini egallab kelmoqda. Oliy o'quv yurtlarining barcha yo'nalishlarida xorijiy tillarni persektiv reja asosida o'qitishga keng e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro munosabatlar doirasida fan va ta'lim tizimida tillarni sohalarga bog'lab o'qitishga o'zgacha yondashilmoqda. Jumladan ingliz tilini tibbiyot, huquqshunoslik, arxitektura, bank sohalariga moslab o'rgatish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo miqyosida jahon yuridik tizimida o'zaro muvofiqlashuvning kuchayishi, mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy-iqtisodiy munosabatlar, huquqiy hujjatlarning ingliz tilida yuritilayotgani, o'zaro munosabatlarda yuridik ingliz tilini bilish muhimligi sabab dunyoning ko'plab davlatlarida ushbu sohaga katta e'tibor berilmoqda. Natijada ingliz tilini nofilologik yo'nalishlarda o'qitishning nazariy usullari, innovatsion metodlari va ularning samaradorlik jihatlari haqidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyo miqyosidagi tadqiqotlarda huquqshunoslik sohasi talabalarida kommunikativ va metodologik fanlar integratsiyasi asosida ingliz tilidagi ijtimoiy muloqotda erkin ishlay oladigan mutaxassis shaxsini shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan soha mutaxassislariga ingliz tilini o'qitishning innovatsion metodlarini ishlab chiqishda milliy, ijtimoiy, gender xususiyatlari kabi faktorlarga asoslangan yondashuvlarni alohida o'rganish zarurati kuchaymoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvning takomillashuvi va filologik bo'lmagan oliy ta'lim muassasasi talabalariga xorijiy tilni o'qitishning metodlari borasida ilmiy va amaliy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"ligi tilshunoslik sohasidagi izlanishlarning nazariy va amaliy jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarilishi lozimligini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda turli mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorliklarning yangi bosqichga ko'tarilishi xorijiy tillar tadqiqi va ta'limini ma'lum bir til sohiblarining madaniyati, mentaliteti, ijtimoiy munosabatlari va dunyoqarashidagi o'ziga xoslik asosida tashkil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, "fan va ma'rifat nafaqat yoshlarning, balki butun jamiyatimizning ham intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishda birinchi darajali ahamiyatga ega"<sup>1</sup> Bu borada mutaxassisning kommunikativ imkoniyatlarini rivojlantirish, jumladan, ingliz tilidagi turli sohaga oid atamalarni tadqiq etishning nazariy va muhim omillarni izchil isloh etish va talabalarga ingliz tilidagi atamalarni o'qishni o'rgatishning nazariy va metodologik tamoyillarini ishlab chiqish hamda ingliz tili

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati. 28.01.2020 y. <https://uza.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020>

yuridik atamalar tahlili va ularni huquqshunoslik yoʻnalishi talabalariga oʻrgatishning nazariy va amaliy asoslarini belgilash dolzarb masala boʻlib turibdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”, 2022 yil 18 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”, 2020 yil 11 noyabrdagi PQ- 4884-son “Taʼlim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”, 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son “Xalq taʼlimi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qoʻllab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Yuridik sohani lingvistik va pedagogik yoʻnalishlarida B.A.Garner, D.Brinton, M.A.Snow va M.B.Wesche, M.Brinton, S.D. Krashen, D.Coyle va D.Marsh, F. Andrew, H.D.Brown J.Crandall, J. Cummins, W. Grabe, F.L.Stoller, M.Escudero, N.A.Asozoza<sup>2</sup> va boshqalar keng qamrovli tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan.

Xorijiy tilni oʻqitish va oʻrganish jarayonining uslubiy xususiyatlari sohadagi bir qator taniqli tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan. Yuridik lugʻat lingvistik

---

<sup>2</sup> Garner B. A. *Legal Writing in Plain English*. Second ed. A Text with Exercises. Chicago–L.: The University of Chicago Press, 2013. - 456 p.; Brinton D. M., Snow M. A. and Wesche M.B. *Content-based Second Language instructions*. - Boston.: “Heinle and Heinle Publishers”, 1989. ;Brinton, M., Wesche M., and Snow M., *Content-based second language instruction*. New York.: “Newbury House”,1989.- ; Krashen, S. *Principles and practice in second language acquisition*. Oxford: “Pergamon”,1982.- ; Coyle D., Hood, P., and Marsh D. *Content and language integrated learning*. Cambridge.: “Cambridge University Press”, 2010.- ; Andrew Frost *English for legal professionals*. – London.: “Oxford University Press”, 2009. - 96 p.; Brown, H. D. *Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy*. New York.: “Longman”,2001. - ; Crandall J. *ESL through area instruction*. Englewood Cliffs N. J.: Prentice – “Hall Regents”,1987. - ; Cummins J *Wanted: A theoretical framework for relating language proficiency to academic achievement among bilingual students*. Rivera, C. (ed.), *Language proficiency and academic achievement*. Clevedon, England.: “Multilingual Matters”,1984.- 10, 2-19 pages.; Grabe, W., and Stoller F. L. (1997). *A six - T's approach to content-based instruction*. Donna M. Brinton and Margaret A. Snow (eds.) *Content-based classroom: Perspectives on integrating language and content*. New York: Longman, 78- 94 pages.; Escudero, M., *The Relevance of CLIL in Law*, University of Zaragoza, 2012. Asozoza, N. A. *Students' perceptions of the impact of CLIL in a Mexican BA program*. *PROFILE Issues in Teachers' Professional Development*, 17(2), 2015, 111-124 p.; Asozoza, N. A. *Students' perceptions of the impact of CLIL in a Mexican BA program*. *PROFILE Issues in Teachers' Professional Development*, 17(2), 2015, 111-124 p.

bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida Ye.V.Aleksandrova, T.V.Varlamova, Yu.A.Kuznetsova, T.L.Kucheryavaya, L.V.Stupnikova, A.S.Pigolkin <sup>3</sup> kabi olimlarning ishlarida tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilgan.

Ingliz tili metodikasini shakllantirish J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova, Sh.S.Ashurov <sup>4</sup> kabi olimlar tomonidan, yuridik terminlarni mazmunini shakllantirish orqali so'zlashuv va nutq boyligini shakllantirish L.T.Ahmedova, V.I.Normurotova, F.Sh.Alimov, S.M.Azizova, X.Mamatqulov <sup>5</sup> va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayoniga integrallashgan yondashuv" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yuridik soha yo'nalishi talabalarining ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan metodikani ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

ingliz tilida yuridik atamalarni qo'llashni o'rgatishning metodik tuzilmasini ilmiy tahlil qilish orqali amalga oshiruvchi kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

ingliz tilida yuridik atamalarning kognitiv tamoyillarini ishlab chiqish;

ingliz tilidagi yuridik atamalarni o'rgatishning nazariy va amaliy maqomini belgilash, nazariy ma'lumotlarni o'rganish, huquqqa oid axborotlarni tahlil qilish usullarini ishlab chiqish;

talabalarni yuridik ingliz tilidagi atamalarni amaliyotda qo'llashga oid innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida oliy ta'lim muassasasining huquqshunoslik yo'nalishlari talabalariga chet tilini (ingliz tilini) o'rgatish jarayoni olingan.

---

<sup>3</sup> Aleksandrova E.V. Method of formation of professionally oriented lexical competence in students of legal specialties. Thesis of PhD in Pedagogic sciences. M., 2009.- 179 p; Varlamova T.V. Legal terminology as an object of study and base for professionally speaking competence of MVD university graduates // Psycho-pedagogy in law enforcement bodies No.1 / 2008 P. 55-58.; Kuznetsova Yu.A. Problems of teaching specialized unofficial and conversational vocabulary in law higher educational establishment // Professionally oriented teaching of foreign language and translation in higher educational establishments: Material of international conference, held on 25-26 of March, 2008. – M.: Peoples' Friendship University of Russia, 2008. P. 145-149.; Kucheryavaya T.L. Problems of professionally oriented foreign language teaching in students of non-linguistic specialties // Theory and practice of education in modern world: materials of international scientific conference (Saint-Petersburg, February, 2012) – Saint-Petersburg, Renome, 2012. – 336-337 pages.; Stupnikova L.V. Optimization of mastering legal terminology while teaching English discourse to students of legal schools // Russian Bulletin of external economics. No.12. 2011 – P. 89-93.; Pigolkin A.S. The language of law / Pigolkin A.S. Pigolkin. – Moscow, 1990. – 256 p.

<sup>4</sup> Jalolov.J.J., G.T. Mahkamova., Sh.S. Ashurov. English language teaching methodology. (Theory and practice) – T.: "O'qituvchi", 2015-338 p.

<sup>5</sup> Akhmedova L.T., Jalalov J.J., Normuratova V.I., Nabieva K.N. Foreign language science curriculum. – T.: 2013. - 17 p.; Alimov V.V. Legal translation: practical course. English. Teaching manual. The 5th edition. – M.: Publishing house "LIBROCOM", 2010. – 160 p.; Azizova S. M. Features of professionally oriented education English for students of legal profile // Pedagogical journal. - 2016. – № 4. 251-260 pages.; Mamatkulov X.A // Pedagoglarning xorijiy tillar bo'yicha kompetentligini amaliy yo'naltirilgan metodik-ta'minot asosida rivojlantirish. Monografiya, 2- T.: "Fan va texnologiya", 2016, - 228 b.

**Tadqiqotning predmetini** huquqshunoslik yo‘nalishi talabalariga ingliz tilining yuridik sohasiga oid atamalarini o‘rgatish nazariyasi, shakli, metodlarini rivojlantirish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada o‘quv jarayonini maqsadli kuzatish, tadqiqot mavzusi doirasida adabiyot manbalarini o‘rganish va tahlil qilish, so‘rovnomalardan foydalanish, tajriba-testi, tajriba-sinov natijalarini qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish, matematik statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz tilida yuridik atamalarni o‘rgatish usuli orqali muloqot jarayonida personal, sotsio-pragmatik, lisoniy, kognitiv omillarni o‘qitishning innovatsion texnologiyalarni qo‘llanilishi asnosida takomillashtirilgan;

ingliz tilidagi yuridik atamalarni o‘qitishdagi diskursning lisoniy va nolisoniy tarkibiy qismlari o‘rtasidagi pragmatik, kognitiv integratsiyalari mazkur birliklarning lisoniy va nolisoniy aktlarda o‘rganish darajasiga ko‘ra aniqlashtirilgan;

yuridik atamalarni muloqotda keng qo‘llanilishining lingvistik-pragmatik, kognitiv-diskursiv imkoniyatlari talabalarning so‘z o‘zlashtirish kompetensiyasini rivojlantirib borish darajasiga ko‘ra samarali shakllantirib borilishi asoslab berilgan;

ingliz tilidagi yuridik atamalarni o‘rgatishning “asosli munozara”, “hamkorlik strategiyasi” kabi innovatsion va polisemantik xorijiy atamalar, yuridik jargonlar va murakkab sintaksik tuzilmalarni qo‘llashdan iborat nostandart usullari metodik qo‘llanilishiga ko‘ra takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Huquqshunoslik yo‘nalishi mavjud oliy ta‘lim muassasalari talabalariga ingliz tilidagi yuridik atamalarni o‘qitishni o‘rgatish orqali kommunikativ va yuridik shaxsni rivojlantirish tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ingliz tilida yuridik atamalarni tushunish bilan bog‘liq lingvistik hamda kommunikativ muammolarni bartaraf etishning uslubiy tamoyillari asosida bir qator mashqlar ishlab chiqilgan;

maqolalar asosida bir qator huquqiy matnlar ishlab chiqilgan bo‘lib, huquqshunoslik yo‘nalishi talabalariga inglizcha atamalardan foydalangan holda nutq boyligini oshirish usullarini o‘rgatish lozim ekanligi asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalarning tahlil metodologiyasi va metodi bilan uyg‘unligi, muhokama qilinayotgan muammoning dolzarbligi, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, katta hajmdagi material tahlili asosida erishilgan lisoniy dalillarning nazariy asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari zamonaviy usullar tatbiqida yechilganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yuridik atamalarni lingvistik va kommunikativ maqomini aniqlash, ularni o‘qitish usullarini ishlab chiqish hamda shu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish usullarining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Ingliz tili pedagogikasi”, “Ingliz tilini o‘qitish metodikasi”, “Yuridik ingliz tili”, “Kasbiy ingliz tili” fanlariga oid darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari to‘plamini yaratishda hamda “Yuridik terminlarni mazmunan o‘qitish” darsligidan ingliz tilidagi yuridik atamalarni o‘qitish bo‘yicha darsliklarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Talabalarni content-based usuli orqali o‘qitish asnosida olingan ilmiy natijalar asosida ingliz tilida yuridik atamalarni o‘qishga o‘rgatishning xulosalari asosida:

ingliz tilida yuridik atamalarni o‘rgatish, ulardan muloqot jarayonida foydalanishning personal, sotsio-pragmatik lisoniy kognitiv omillari takomillashtirilganligi haqidagi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan Yevropa ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational linguistics at Central Asian universities” grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 05 apreldagi 561/30.02.01 son ma’lumotnomasi). Natijada loyihadagi metodik modullarning elektron ma’lumotlar bazasini takomillashtirishga erishilgan;

ingliz tilidagi yuridik atamalarni o‘qitishdagi yuridik diskursning lisoniy va nolisoniy tarkibiy qismlari o‘rtasidagi pragmatik, kognitiv integratsiyalari ko‘lamiga oid natijalardan Yevropa Ittifoqining Erasmus + dasturining 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMIP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasining nazariy asoslarini belgilashda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 05 apreldagi 561/30.02.01 son ma’lumotnomasi). Natijada, xalqaro loyiha asosida chet tillarini o‘qitishni takomillashtirishning nazariy qismini boyitish va ta’lim jarayonini takomillashtirish hamda ommalashtirish uchun uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishga erishilgan;

ingliz tilidagi yuridik atamalarni o‘rgatishning “asosli munozara”, “hamkorlik strategiyasi” kabi innovatsion va ko‘p so‘zli xorijiy atamalar, yuridik jargon va murakkab sintaksik tuzilmalarni qo‘llashdan iborat nostandart usullari takomillashtirilishi borasidagi xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi tomonidan 2022 yil 8 aprel sanasidan 20 mayga qadar efirga uzatilgan "Ingliz tilidan onlayn dars" ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi 2022 yil 9 apreldagi № 01-11/136 son ma’lumotnomasi). Natijada, bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganish, huquqshunoslik yo‘nalishidagi talabalarga ingliz tilini o‘rgatish orqali ularning huquqiy savodxonligini takomillashtirish va mazmunini boyitish asnosida darsda Content-based metodikasini qo‘llash, ularni sohaviy bilimlarini boyitish, dars jarayonida nutqiy va lug‘aviy kompetentsiyalarni oshirish, yuridik atamalarini ingliz tilida to‘g‘ri ifodalash hamda qo‘llashga xosliklarini ifodalanishi to‘g‘risida teletomoshabinlar yetarlicha ma’lumotlarga ega bo‘lishgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy amaliy anjumanda, shu jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik ishlarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shulardan 2 ta respublika va 3 ta xorijiy ilmiy jurnallarda, shuningdek, turli ilmiy to'plamlarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 135 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Ingliz tilini o'qitish dasturining ilmiy tahlili" deb nomlangan birinchi bobida ingliz tilini nofilologik yo'nalishlarida o'qitishning nazariy usullari, o'qitish metodlari va ularning samaradorlik jihatlari tahlil qilingan. Til o'qitish integratsiyasiga oid olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilgan va munosabatlar bildirilgan. Mazkur bobning "Yuridik ingliz tilini o'qitishda gaplarda yuridik atamalarning sintaktik shakllanishining yo'llari va xususiyatlari" deb nomlangan paragrafida ingliz va o'zbek tillaridagi yuridik atamalarning sintaktik shakllarini o'qitish tahlil qilingan. Sintaktik tarkibiga ko'ra, umumiy va xususiy yuridik sohaga oid terminlar turlarga ajratish usuli orqali tadqiq etildi. Buning natijasida ingliz tilidagi yuridik terminologiyaning butun qatlami o'rganilib chiqildi.

Yuridik sohaga oid til birikmalarini o'qitishda birinchi navbatda ularning lingvistik maqomini belgilashga qaratilgan omillarga e'tibor qaratgan holda, talabalarga quyida keltirilganlarni farqlab o'rganishga mas'uliyat yuklaydi:

monolog va dialog nutqdan dolzarb masalalarda ijobiy va qarshi fikrlar, shuningdek, o'z fikrini bildirish uchun keng ko'lamlil foydalanish tajribasini shakllantirish;

dolzarb mavzuga oid munozaralarda suhbatlashish qobiliyati, "hamkorlik" strategiyasini amalga oshirish;

zamonaviy mavzulardagi matnni tushunish, mualliflarning individual pozitsiyasi belgilash;

o'tilgan mavzular bo'yicha ma'ruzalar, filmlar va dialoglarning izohlarni tushunish.

Ikkinchi paragraf “CBI yordamida yuridik ingliz tilini og‘zaki tilning rasmiy komponenti sifatida o‘rgatish” deb nomlanib, madaniyatlararo kommunikativ, lingvistik, shuningdek boshlang‘ich kasbiy kompetentsiyalarni o‘qitishga mazmunli va muvozanatli yondashuvni qo‘llash orqali professional vaziyatlarda o‘qitishning har bosqichida ingliz tilidan samarali foydalanishga yordam berishi ko‘rib chiqilgan. Ma‘lumki, ingliz tili odamlar o‘rtasida muloqot qilish, ma‘lumotni taqdim etish va ma‘lumot olish uchun xizmat qiladigan ijtimoiy sohalarning asosi sanaladi. Ta‘lim sohasidagi kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, yuridik yo‘nalishda yuridik ta‘lim oluvchi talabalarga ingliz tilini o‘qitish alohida metod va usullardan foydalanishni talab etadi. Bu yuqori darajadagi sammitlarda yuridik atamalarning sinonimik guruhlarida samarali foydalanishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, ingliz tilini o‘qitish amaliyoti shuni ko‘rsatdiki, yuridik ingliz tilini o‘rganishda muayyan muammo va ziddiyatlar paydo bo‘lishi mumkin, chunki huquqshunoslik murakkab, ko‘p qirrali va o‘ziga xos tushunchalar bilan ishlaydi. Mazkur tushunchalar maxsus atamalar bilan ifodalanib, semantik noaniqligi, funksional barqarorligi orqali ajralib turadi. O‘z navbatida, yuridik soha sanoat, iqtisod, siyosat kabi sohalar bilan ham uzviy bog‘liqligini unutmaslik lozim. Bu shundan dalolatki, yuridik atamalarni o‘rgatishga oid tadqiqotlar boshqa sohalarning atamalariga ham e‘tibor qaratishni talab etadi. Maxsus atamalarni tavsiflovchi iboralar bilan almashtirish so‘zlarning aniqligi va to‘g‘riligiga, huquqshunoslar fikrining aniq va ravshan ifodalanishining yo‘qotishiga olib kelishi mumkin.

Yuridik lug‘at ancha murakkab hisoblanib, polisemantik birliklarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-siyosiy terminologik ta‘limga kelsak, u yuridik lug‘atning o‘zini yoki huquq va huquqshunoslikni o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot doirasida, huquqshunoslikning ingliz tilidagi rasmiy og‘zaki shakli ko‘rib chiqildi, chunki bu qonunchilikda normalar ishlab chiqish va qonunlarni qo‘llashning turli sohalarda qo‘llaniladigan tartibga solish usuli hisoblanadi.

Tadqiqot ishi natijalari yuridik sohaga oid ingliz tilidagi birliklarni o‘qitish shu soha yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan bo‘lishiga qaramasdan, boshqa soha vakillari ham yuqori darajadagi uchrashuvlar va konferensiyalarda, sud jarayonlari va maxsus vaziyatlarda rasmiy muloqot birliklari sifatida qo‘llashlari mumkin.

Ushbu sohaga oid atama va iboralarni yuridik ingliz tilining rasmiy og‘zaki nutqida ham ishlatish mumkin, bunda o‘qituvchi ushbu so‘zlarni dars davomida qonuniy yuridik material sifatida ishlatishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, o‘qituvchilar og‘zaki muloqot orqali vazifalarni bajarishda talabalar bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish lozim.

Ta‘lim jarayonida atamalarning ekvivalentlariga sintaktik yo‘l orqali aniqlanadi. Bu dars davomida ham ingliz tilida, ham o‘zbek tilida yuridik atama terminlarini o‘qitishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Tadqiqot ishi amaliyot jarayonida qo‘llaniladigan yuridik sohaga oid atamalarni bir ma‘noga ega atamalar bilan cheklash mumkin emasligini ishonchli tarzda isbotlaydi. B.N.Golovin “Bu turdagi atamalarni alohida so‘zlar va iboralar bilan bir yoki boshqa maxsus faoliyat sohalarda nominativ va asosiy funksiyalarida tan olinishi”ni mantiqiy jihatdan

qo‘llab-quvvatlaydi. Ko‘pgina yuridik sohaga oid tushunchalar alohida so‘z-atamalar bilan emas, balki turli xil so‘z birikmalari, ya’ni aralash terminologik birikmalar, izohlovchi atamalar hamda polisemantik atamalarning nomlari bilan ifodalanadi. Yuridik ingliz tiliga oid atama-iboralar T.M.Balixina, V.P.Danilenko, B.N.Golovin, I.G.Galenko hamda E.B.Yershovalar <sup>6</sup> kabi ko‘plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o‘rganilgan. Ular olib borgan tadqiqotlarda asosan ingliz tilini o‘qitish jarayonida yuridik atamalarning sintaktik shakllanishi va ularning xususiyatlarini izohlashga asosiy e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, yuqoridagi olimlar tomonidan yuridik ingliz tiliga oid bo‘lgan terminologiyani metodik usullar orqali qo‘llashni o‘rgatish izchillik asosida tatbiq etilmagan. Yuridik sohaga oid lug‘at juda murakkab va izoh talab qiladigan so‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi. Yuzaga keladigan ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarda yuridik sohaga oid atamalar yuridik lug‘atda qo‘llaniladigan yaxlit yoki qisman o‘qitishga doir birikmalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot doirasi huquqshunoslikning qonunchilik, qoidalar va huquqni tartibga solish organlarida ingliz tilida rasmiy muloqotni amalga oshirishga ko‘mak beruvchi metod va usullarini qo‘llashdan iborat. Huquqshunoslik fanidan ta’lim beruvchi o‘qituvchi uchun yuridik ingliz tilini o‘qitish muhim ahamiyatga ega emas, chunki bu uning funksional vazifasiga kirmaydi, lingvistik soha mutaxassisi uchun huquqshunoslikda foydalaniladigan va qo‘llaniladigan barcha atamalar amaliy ahamiyat kasb etmaydi. A.G.Anisimova va M.A.Arxiportalarning <sup>7</sup> ta’kidlashicha, “Xalqaro rasmiy munosabatlarda keng axborot maydonini yuzaga keltirilishi terminologiya tizimi uchun katta ahamiyat” kasb etadi. A.S.Pigolkin<sup>8</sup> fikrigi ko‘ra, “Yuridik atama so‘z va so‘z birikmasi sifatida qonunchilikda umumiy yuridik tushuncha singari aniq va o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lgan shartli monosemiya va funksional barqarorlik sifatida” tavsiflanadi. K.Ya.Averbuxning<sup>9</sup> ta’kidlashicha, “Atamaning morfologik tuzilishi turlicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin”. Uning so‘zlariga ko‘ra, “Sohaga oid tushunchalarni aks ettirishning barcha turdagi ahamiyatga ega bo‘lmagan shakllari, ya’ni ekvivalentlari sifatida qo‘llanilishi mumkinligi, har bir so‘zning termin shaklida foydalanishi barqaror aloqani mavjudligi”dan dalolat beradi. A.V.Zuyeva<sup>10</sup> qo‘shimcha tarzda “Yuridik ingliz tiliga doir so‘zlarni terminologik kompleks ichida muloqot vositasi (terminologik tizim yadrosini tashkil etadigan egalik qo‘shimchalar) bilan birga sifat va ravishlardan tashkil topishi”ni ta’kidladi.

---

<sup>6</sup> Balykhina T.M. Terminological phrases in the language of legal literature: auto ref. dis. ... Cand. philol. sciences. - M., 1983. - 17p.; Danilenko V.P. Russian Terminology: An Experience of Linguistic Description. - M.: "Nauka", 1977. - 246 p; Golovin B.N., Kobrin Z.Yu. Linguistic foundations of the doctrine of terms: textbook. manual for philol. specialist. universities. - M.: "Higher", 1987. - 104 p; Galenko I.G. Word-building nests in the linguistic terminology of Russian language // Actual problems of Russian word formation. - Tashkent, 1982; Ershova E.B. Terminology of criminal law (lexico-semantic and functional aspect): dis. ... Cand. philol. sciences. -L., 1990.- 129 p.

<sup>7</sup> Anisimova A.G., Arkhipova M.A. English legal terms: optimization of education process // Bulletin of Moscow State Institute for International Relations, No. 4 (37). - M. 2014. - 294-299 pages.

<sup>8</sup> Pigolkin A.S. The language of law / Pigolkin A.S. Pigolkin. - Moscow, 1990. - 256 p.

<sup>9</sup> Averbukh K.Ya. General theory of term. - M.: "Publishing house of Moscow State Regional University", 2006. - 252 p.

<sup>10</sup> Zuieva I.V. Peculiarities of usage of English legal terminology // University readings. - PSLU, 2010.

Biroq V.V.Leychik<sup>11</sup> “Qo’shma fe’l, sifat va ravishlarning terminologik qator yaratilishiga ortiqcha sabab ko‘rinmayotgani”ni ta’kidlaydi. Yuridik sohaga oid terminologiya boshqa sohalar terminologiyasidan farq qiladi. Umumiy adabiy til va yuridik til o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikni yo‘qolishiga lotin tili sezilarli ta’sirini ko‘rsatgan. Angliyada yuridik institutlarning ta’lim jarayonlarida huquqshunoslikda foydalaniladigan atamalar o‘rganila boshlandi. Lotin tilidan olingan mazkur sohaga doir bo‘lib qolib, tadqiqotchilarning bergan ma’lumotlariga ko‘ra 10% gacha sof lotin tilidagi atamalar saqlanib qolingan. Yana bir xususiyat, yuridik terminologiyasini o‘qitish tizimlarida leksik birliklarning ingliz tilida ishlatilishi maqsadga muvofiq. Masalan: “right”, “totality”, “composition” so‘zlarini yuridik tilda qo‘llanilishini ko‘rish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Zamonaviy ingliz tili metodologiyasida kontentga asoslangan yondashuv orqali o‘qitishning ahamiyati” haqida bo‘lib, uning birinchi paragrafida “Ta’limning integratsiyalashuvi jarayonida muloqot atamalarini yuridik ingliz tilida o‘qitish metodikasi” tahlil qilindi. Yuridik ingliz tili ikki fan - tilshunoslik va huquqshunoslik fanlari asosida tutashgan fan hisoblanadi. Ushbu fanning tatbiq etish doirasi til va huquq o‘rtasidagi muammolar va aloqalar bilan bog‘liq bo‘lib zamonaviy tilshunoslik talablariga javob beradigan tadqiqot usullari va natijalarini o‘z ichiga oladi. Yuridik ingliz tili qonun matnlarini asl til bilan aloqadorligi orqali tushuntirgan holda, o‘zbek tilshunosligi va pedagogikasida alohida yo‘nalish sifatida XXI asr boshlarida alohida ajratila boshlandi. Yuridik ingliz tilini o‘rganish va o‘qitish o‘zbek tilida tahsil oluvchi soha vakillari uchun nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham zarur ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim tizimida foydalaniladigan darsliklar va lug‘atlarning yetishmasligidan dalolat beradi. Yuridik matnlarni ingliz tilida yozma va og‘zaki shaklda aniq tarjima qila oladigan, mehnat faoliyati jarayonida o‘z fikrini bemalol ingliz tilida bayon eta olish qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlash zarurati mavjud. Sohaga doir bo‘lgan ingliz tilidagi darsliklar va lug‘atlarsiz bunday vazifani bajarish qiyin, hozirgi kunda integral terminologik tizimlar bilan mustaqil aloqaga ega bo‘lmagan atamalar va terminologik iboralarning tarjima ekvivalentlarini o‘z ichiga olgan yuridik qo‘llanmalarni yaratish bo‘yicha takliflar berilmoqda. Shu bilan birgalikda, xorijiy yuridik ta’lim tizimlaridan foydalanmaslikning iloji yo‘q. Chunki Angliya va Amerika huquqshunosligidagi yuridik atamalarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan munosabatlarini o‘rganmasdan, sifatli tarjima haqida so‘z yuritib bo‘lmaydi. Zamonaviy ta’lim tizimi yuridik ingliz tilini o‘qitishda yangi o‘qitish usullari va manbalariga murojaat qilishni talab qiladi. Maxsus sohaga oid atamalarni og‘zaki ingliz tilida o‘qitish zamonaviy usullariga darsliklar, munozaralar, ikki tilli lug‘atlar, sohaga oid jurnallar, podkastlar, onlayn resurslar, yuridik vaziyatlarda ingliz tilida muloqot olib boruvchi hamkasblar bilan muloqot amaliyoti kiradi. Yuridik fakultetlarda ingliz tili o‘qituvchilari yuridik ingliz tilini o‘rgatish uchun xorijiy mualliflarning o‘quv uslubiy majmualaridan tobora ko‘proq

---

11 Leichik V.M. Optimal length and optimal structure of the term // Questions of linguistics, 1981, P: 63-73 pages.


foydalanmoqdalar. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu o'quv materiallari yuridik talabalar o'rtasida faol tarzda muloqot asoslarini shakllantirishga yordam beradi. Bo'lajak huquqshunoslarni tayyorlash jarayonida quyidagi sohaga oid til qobiliyatlarini rivojlantirishi kerak:

shaxslararo va madaniyatlararo o'zaro ta'sir muammolarini hal qilish uchun og'zaki va yozma shaklda muloqot qilish qobiliyati;

og'zaki va yozma nutqni mantiqan to'g'ri, oqilona va aniq qurish qobiliyati;

chet tilida kasbiy muloqotning zarur ko'nikmalarini egallash qobiliyati;

yuridik faoliyat natijalarini jarayonlarda va boshqa hujjatlarda to'g'ri va to'liq aks ettirish qobiliyati.



### 1-rasm. Mazmun asnosida yuridik ingliz tilini o'qitishning hozirgi bosqichi

1-rasmda quyidagilar tegishli vazifalar sifatida ko'rib chiqilgan:

xorijiy metodik adabiyotlar tahlili;


chet tillarni o'qitish metodikasining asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

yuridik ingliz tilini o'qitishning mahalliy va xorijiy usullarini taqqoslash;

yuridik fakultet va kollej talabalarida yuridik ingliz tilini o'qitish samaradorligini aniqlash.

“Ingliz tilidagi yuridik atamalarining mazmunini kontentga asoslangan va integratsiyalashuv asnosida o'rgatish” nomli paragrafida bir nechta tillarda so'zlashuvchi odamlarning o'qitish jarayonlarining bir tillilardan ustunligi haqidagi ma'lumotlarga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqot ong va miyada bir nechta tilga ega

bo'lish yuridik ingliz tili orqali qanday foyda keltirishini tushuntiradi. Shuningdek, bu paragraf tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirish tilni fan sifatida o'rganish, til orqali mazmunga ega bo'lish imkoniyatlarini birlashtirgan ta'lim strategiyalariga bog'liqligini ochib beradi.



## 2-rasm. Xorijiy metodik jarayonlarning tahlili

2-rasmda, ingliz tili o'qituvchilari hamda yuridik matnlarning mohir tarjimonlari tomonidan yuridik ingliz tilini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan mantiqiy manbalar korpusini nazarda tutish tavsiya etiladi. Ushbu ilmiy va lingvistik hodisa nafaqat xalqaro yuridik aloqalarda yetakchi, balki Yevropa Ittifoqining yuridik ingliz tilida o'qitish va tadqiq qilish jarayonining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Bundan tashqari, oliy ta'lim tomonidan qo'yilgan vazifalardan yana biri shuki, Yevropa universitetlarida bo'lgani kabi talabalarning o'quv jarayonida yanada integratsiyalashuvining kengaytirilgan imkoniyatlarini o'zimizning universitetlarda ham joriy qilish hisoblanadi. Har bir talaba uchun zarur hisoblangan yuridik ingliz tilini o'qitishning tizimli yondashuvini ishlab chiqish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Eng asosiy maqsad, o'qitishga tizimli yondashuvni ishlab chiqish hisoblanadi. Bu yerda, o'z navbatida, bir nechta talablar belgilab qo'yilgan:

umumiy ingliz tili grammatikasi va xususan yuridik ingliz tili grammatikasiga oid bilimlarni mustahkamlash bo'yicha tizimli mashqlarni ishlab chiqish;

atamalarni yaxshi bilish va ularni gaplarda to'g'ri ishlata olish qobiliyatini shakllantirish;

o'z mamlakati va o'rganilayotgan til mamlakatining yuridik sohalarini bilish, umumiy ma'lumotlar va atamalar tavsifi, shuningdek yuridik sohasi doirasidagi hujjatlarni yuridik ingliz tili yordamida mukammal o'rganish;

huquqshunos eng mos yaxlit tushunchani tanlashi uchun atamalarni, shu jumladan alternativ atamalarni tavsiflashi, shuningdek ushbu atamalardan qanday foydalanishni izohlashi;

talabalarining ushbu yuridik sohalarida turli xil hujjatlar bilan ishlashda juda katta tajribaga ega bo'lishi.

Yuridik atamalarni qo'llash huquqshunos uchun ayniqsa foydali, chunki ular asosida konsepsiyani to'g'ri va aniq belgilaydi va qoidalarni aniqroq tushuntirishga harakat qiladi, natijada ikkinchisini yaxshiroq tushunish va qo'llash mumkin. Umuman olganda, qonunchilikda fikrni ifodalashda lingvistik axborotlar mukammallashtiriladi. Yuridik atamalarning ishlatilish jihatlari bir sohada qo'llanilishidagi bir xilligi, semantik o'ziga xosligi va to'liqligiga content-based o'qitish usuli bilan erishish mumkin.

Yuridik atamalarni batafsil tavsiflovchi iboralar bilan almashtirish o'qitish jarayonida ko'p uchraydi, chunki qoidalarga asoslanmagan tarjimalar noto'g'ri hujjatlarni yuzaga kelishiga olib keladi, shuningdek ularni jarayonlarda qo'llashni qiyinlashtiradi. Atamaning kontekstda mustaqilligi ham huquqshunoslar, ham tilshunoslar tomonidan qayd etilgan va atamaning ma'nosi umumiy so'z birikmalarida bo'lgani kabi uning ta'rifida ham izohlab berilgan. Natijada, atama so'zma-so'z tarzda mukammal til sathiga o'tadi va tizim atamasining bir qismiga aylanadi. Yuridik talqin ba'zan qonuniy tarjima sifatida talqin qilinadi. Yuridik tarjima - bu tarjimaning boshqa turlaridan ajralib turadigan bir turi bo'lib, ushbu tarjima uslubi tarjimonning imkoniyatlarini to'liq tushunishni talab qiladi. Yuqoridagi fikrni izohlagan holda mukammal yuridik jarayondagi tarjimani amalga oshirish uchun sohaga xorijiy til asosida o'qitish usulini kiritishning bir nechta talqini tavsiflandi. Bunga ko'ra:

- 1) har bir bo'lajak huquqshunos manba va xorijiy tilni bilishi;
- 2) xalqaro yuridik tizim haqida tushunchaga ega bo'lishi;
- 3) tegishli yuridik fanlar bo'yicha ishlaydigan bilimga egaligi;
- 4) sohaga doir tarmoqlarda ekspertiza jarayonlarda ishtirok etish layoqatiga egaligi;
- 5) tarjima san'atini o'rganish va o'ziga xos iste'dodlarni rivojlantirish hamda ularni birlashtirishni talab etadi<sup>12</sup>.

D.Kristalning o'z asarida "Yuridik nutq xarakterining o'ziga xosligi"ni ta'kidlab, "Akademik til ta'lim muassasasida o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan tildir" deya keltirib o'tadi. Talabalarining bilimlarini tekshirish orqali olib borgan sinov-tajriba mashqlari natijasida shunga amin bo'ladi. D.Kristalning<sup>13</sup> yuqorida bergan nazariyasi asosida "umumiy ingliz tili orqali o'qitish uzoq vaqtni talab qilishini hamda talabalar o'qishi davomida ko'plab mavzular bo'yicha rivojlanishini ko'rishimiz tobora noaniq va mavhum bo'lib boradi, chunki ta'lim muassasasida o'tiladigan fanlarning vazifasi talabalarining yangi, maxsus bilimlarni mukammal o'zlashtirishida" deb hisoblaydi.


Akademik tilning lingvistik qoliplari talabalar tomonidan yuzaga keladigan vaziyatlarda, vazifalarda, nutqda, matnlarda va ta'lim tizimi mavzularini baholashda uchraydi. "Advokatlar uchun ingliz tili" kursining mazmunini

---

12 Cummins J Wanted: A theoretical framework for relating language proficiency to academic achievement among bilingual students. Rivera, C. (ed.), Language proficiency and academic achievement. Clevedon, England.: "Multilingual Matters", 1984.- 10, 2-19 pages.

13 Crystal, D. The Cambridge encyclopedia of English. Cambridge, 1994.


dissertatsiyada bayon qilingan akademik vazifalari talablariga ko'ra, tadqiqotda PQA (problem-question-answer) uslubiga e'tibor qaratilgan. Bu dalil PQA uslubi dars jarayonida o'rgatish uchun ijtimoiy konstruktivistik janr nazariyasining g'oyalarini chizish asnosida pedagogik strategiyaning tajribasini yanada kuchaytirdi. Tajribada o'qitish usuli sifatida CBI (til va soha uyg'unligidagi ta'lim) qo'llanildi. Mazmunga asoslangan ta'lim deb ham ataladigan CBI o'ziga xos tarzda til amaliyoti uchun vosita sifatida akademik kontent sohasidagi vazifalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. CBI sinflarida tilni o'rganish va kontentni o'rganish tandemga qo'yilgan bo'lib, unda kontent vazifalari til amaliyoti, shu jumladan akademik ta'lim uchun manba bo'lib xizmat qiladi.




**3-rasm. Content-based strukturasi**

Hozirgi vaqtda CBI (Content-based instruction) innovatsion metodologiyasi nafaqat maktab, balki oliy ta'lim tizimida ham muvaffaqiyatli qo'llanilishi kutilmoqda, ikkinchi holatda tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

CBI yondashuvi xorijiy til va fan mazmunini parallel ravishda o'qitishni anglatadi. Yondashuv, nafaqat o'qitish mantig'ida, balki turli yoshdagi va toifadagi talabalar uchun yangi avlod imtiyozlarini tuzish tamoyillarida ham o'z aksini topadi.



**4-rasm. CBI yondashuvining afzalliklari**



**5-rasm. O‘qituvchining CBI yondashuvini qo‘llash sxemasi**

Ishlab chiqilgan qo‘llanmalar nafaqat CBI yondashuvini o‘rgatish uchun mos keladi, balki dastlab joylashtirilgan va unga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu ko‘pincha ularning nomlarida aks etadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, CBI yondashuvi yuridik ingliz tilini o‘qitishda keng tarqalgan dasturlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, birinchi kurs talabalari bilan ishlaydigan o‘qituvchilar talabalarga yangi ma‘lumotlarni yetkazib berishda ko‘pincha muhim hajmdagi ma‘lumotlarga (birinchi navbatda, tematik, konseptual, terminologik) duch kelishadi. Ko‘pgina asosiy tushunchalarning shakllanishi xorijiy til va haqiqiy materiallar orqali sodir bo‘ladi.


Bu CBI yondashuvini qayta ko‘rib chiqish, uni shakllantirish va mukammal tadqiqotlar sohasida xalqaro tilni o‘rganish ehtiyojlariga bosqichma-bosqich moslashtirish, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni ko‘proq ta‘lim yo‘nalishlarida qo‘llash uchun asos bo‘ladi. Yuridik atamalarning jamiyat hayotidagi o‘rni huquqlarni anglash, xalqaro munosabatlarning kengayishi munosabati bilan tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Yuridik terminologiya, asosan an‘anaviy tarzda yuqori darajada ixtisoslashgan, bir ma‘noli atamalardan iborat. Huquqshunoslik fanining terminologik birliklari ilmiy bo‘lib, huquqning o‘xshash birliklari shaxs ongining shakllaridan biri bo‘lganligi sababli alohida toifaga ajratilishi mumkin. Yuridik sohaga oid maxsus lug‘atning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, har bir atama turli terminologik toifalarda berilishi mumkinligi bilan belgilanadi. Umumiy yuridik atamalar qo‘llanilgan yuridik sohasiga qarab, o‘z ahamiyatini o‘zgartirmaydigan leksik birliklar tarkibi kiradi. Demak, masalan, fuqarolik jarajoniga nisbatan “qabul qilish” atamasi “da‘vo ishtirokchisi yoki uning vakolatli vakilining tarafning ishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi bayonoti” degan ma‘noni anglatadi. Holbuki, jinoyat jarajonida - bu atama “ayblanuvchining huquqbuzarlik yoki fakti tan olgan bayonoti” degan ma‘noni anglatadi. Muayyan toifaga ma‘lum bir atamani belgilash uchun uning

ta'rifi va huquq tushunchalarining umumiy tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Yuridik ingliz tilining o'ziga xos xususiyati - sud va yuridik tashkilotlar tomonidan atamalarning yangi ma'nolarini kiritish hisoblanadi. Ko'pincha, bu atamaning ma'nosi - sud qarorlarini qabul qilish jarayonida aniqlik kiritish orqali yangi g'oyalarga ega bo'la boradi.

Yuridik terminologik birlikning ma'nosini shakllantirishda sud talqini katta rol o'ynaydi. Agar boshqa tillarning terminologik tizimlarida yuridik leksik birliklar ekstralingvistik voqelik, ya'ni predmetlar, harakatlar, munosabatlar va sifatlar bilan bevosita bog'langan bo'lsa, yuridik ingliz tili terminologiya tizimida leksik birliklar ekstralingvistik voqelik bilan bilvosita bog'lanadi. Doimiy rasmiy hujjatlarni ishlab chiqish talabalarini yuridik atamalar, ko'p ma'noli yuridik birikmalar, yuridik jargon va murakkab sintaksis tuzilmalar kabi lingvistik vositalardan foydalanishga o'rgatadi.

Talabalar, shuningdek, tarjima jarayoni va mehnat mehnat faoliyati davomida hujjatlarni xorijiy tilda yuritish sifat darajasini oshirish uchun professional xizmatlarni avtomatlashtirish, texnologiyalar va dasturiy ta'minotidan qanday foydalanishni o'rganadilar. Eng dolzarb muammo, o'qituvchi ularni qanday tushuntira olishida, ya'ni har bir darsda u lug'atdan foydalanishi yoki mashqlar orqali tushuntirish usulidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Ushbu bo'limda o'qituvchi CBI yondashuvini qo'llash orqali asosiy mavzuni tushuntirish amaliyotiga ega bo'lishi kerak. Tabiiy fanlarni o'zlashtirishda keng qo'llaniladigan CBI yondashuvi talabalar o'rganishini osonlashtiradigan kontekstda yuzaga keladi, chunki osonroq o'rganib, mavzuni o'zlashtirish bu muammolarni hal qiladi. Bunda o'qituvchi huquqshunoslik fakulteti talabalariga til o'rgatishni CBI yondashuviga asoslangan mashqni qo'llanilishini izohlashi kerak. Ushbu faoliyat KWL deb nomlanadi va u tilni o'rgatuvchi o'qituvchilar tomonidan talabalarga ikkinchi tilni mazmunga asoslangan ta'lim orqali o'rgatish uchun oddiy uchta ustun yoki grafikda namoyon bo'ladi.

Dastlabki bilimlari yordamida talabalar birinchi bosqichni mavzu bo'yicha oldindan bilgan bilimlari bilan yakunlaydilar. Ikkinchi bosqichda ular ushbu mavzu bo'yicha nimani bilishni xohlaydilar va topshiriq oxiridagi uchinchi ustunda talabalar dars jarayonida nimani o'rganganlarini aks ettirishlari kerak.



6-rasm. KWL faoliyati

